

QOVOQDOSH EKIN ZARARKUNANDALARI TARQALISHI, ZARARI VA QARSHI KURASH CHORASI

A.Mamajonov

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Qovoqdosh ekinlarining tarixiy jihatdan avvaldan shakllangan makonlarning bor ekanligi harakterli hisoblanadi, bu makonlarning har biri ekologik jihatdan tuprok-iqlim sharoitlariga ancha o'rgangan, o'zlarining navlik belgilari bilan ajraladi. Afsuski qovoqdosh ekinlari bir qancha maxsus va xammaxo'r zararkunanda xasharotlar bilan zararlanib xosildorlikni pasayib ketishiga olib kelmoqda.

Kalit so'zlar: g'ovaklovchi pashsha, qovun, ertapishar, kechpishar navlar, pashsha, pupariy, tuxum, lichinka, yetuk, zot, xarorat

Tarqalishi: G'ovaklovchi pashshalarning taxminan 2000 turi tarqalgan. Lichinkalari o'simlikxo'r-o'simlik bargida kam hollarda poyada mina hosil qiladi. Ba'zilar yosh daraxtlar novdasining kambiy qismida yashaydi. Juda kam ildizda yashaydi. G'ovaklovchi pashshalarning monofag, oligofag va polifag turlari uchraydi. Bargda mina hosil qilganda, ekskrementlarini g'ovakda qoldiradi. 150 tur madaniy o'simliklarda rivojlanadi. Lekin ba'zilarinigina kuchli zararlaydi [134; 235-b]. Hozirda *Agromyzidae* oilasi o'simlikshunoslikda eng katta zarar yetkazadigan ikki qanotlilar turkumi vakilidir. Jahon faunasida oilaning 3000 dan oshiq turi ro'yhatga olingan. Ularning ko'pchilik turlari monofag, 16 turi esa polifag hisoblanadi. Qishloq ho'jalik ekinlariga jahonda 250 turi zarar yetkazadi. Sobiq ittifoq xududida 100 turi uchrashi aniqlangan [16; 28-b].

Amerikalik olim Burgess tomonidan 1895 yil g'ovak xosil kiluvchi pashshalar AQSh da birinchi marta zararkunanda sifatida ro'yhatga olingan. Avtor ro'yhatga olingan turni aniqlab, uni *Oscinis trifolii* Burg. deb nomlaydi. G'urrayasar pashshachalar-*Agromyzidae* oilasi. Bularga yumaloq boshli mayda pashshachalar kiradi. Peshonasida qilchalar hiyobonchasi va vibrisslari(og'iz chetidagi qilchalari) bor. Kostal, subkostal va anal katakchasi belgisi bor. Ko'pchiligining lichinkalari turli o'simliklar bargida g'urra yo'llar yasab oziqlanadi [136; 134-b].

Zarari: Yevropada esa salat, loviya, bodring, selderey, qalampir, kartoshka, pomidor kabi o'simliklarni asosiy zararkunandasi hisoblanadi. Shimoliy Amerikada xrizantemani ashaddiy zararkunandasi hisoblanadi. Meksikada chili qalampiriga jiddiy ziyon yetkazadi. *Liriomyza trifoli i* turining ho'jayin o'simliklari: Sarimsoq, yeryong'oq, moychechak, lavlagi, xitoy karami, qalampir, shirin qalampir,

xrizantema, bodring, qovun, soya, g'oz, kungaboqar, karam, loviya, baqlajon, kartoshka, ismaloq, vigna

Kurash choralari: Baranowski T. g'ovak hosil qiluvchi pashshlarga qarshi kimyoviy qarshi kurashish usulini qo'lladi. Xrizantemadagi *Liriomyza trifolii* ga qarshi kurashish uchun evisekt, trigard, aktellik preparatlari sinalgan. Nazorat (etalon) sifatida xostation preparati olindi. Ishlatilgan preparatlar ichida eng yaxshi natijani evisekt preparati, biroq bu preparatni kuchli fitotoksiklik hususiyati bo'lganligi uchun amaliyotga tavsiya etilmadi. Trigard preparati asosan yosh lichinkalar uchun samarali bo'lgan [51; 36-49-b.]

Shuningdek ushbu olim shu zararkunandalarga qarshi Temin preparatini ham 4 xil variantda: 1 haftada bir, 2 haftada bir, 3 haftada bir martadan qo'llagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xujaev Sh. T, Xolmurodov E. A "Entomolgiya, qishloq xo'jalik ekinlarni ximoyasi, qishloq va agrotoksikologiya asoslari" Toshkent-2009y
2. Kimsanboev X.X. va boshqa "Umumiy va qishloq xo'jalik entomologiyasi" Toshkent-2002 y
3. Turdieva, G. A., Kambarova, M. A., & Ergasheva, X. I. (2019).